

**ABDULLA ORIPOV SHE'RLARIGA BIR NAZAR**

Surayyo Do'stova

Ilmiy rahbar: dots.

Normamatov Diyorbek

Talaba

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O'zbek xalqining sevimli shoirlaridan biri bo'lgan Abdulla Oripovning she'rlari kirib bormagan xonodon bo'lmasa kerak. Abdulla Oripov she'riyatining qudrati yuksak darjadadagi badiiyligidadir. Lekin uning she'rlarida sun'iy badiiylik, zo'rma-zo'raki o'xshatishlar, mantiqqa zid bo'lgan jonlantirishlar orqali badiiyat yaratilmaydi. Uning har bir iborasi, har bir tashbehi haqiqatdir. Abdullar Oripov dono xalqimiz yaratgan maqollardan, matallardan va iboralardan shunday foydalanadiki, natijada shoir tilga olgan maqollaridan qayta she'riy umrini boshlaydi. Abdulla Oripovning har biri she'ri, har bir misrasining o'z ohanggi bor, uni sira boshqa ohangda aytib bo'lmaydi. She'riyatining o'ziga xosligi shundaki, u behad o'ziga xos shoir. U sevsu o'rtanib, qalamni taroshlab, avaylab, yonib ishga soladi. Shoir rostdan ham Vatan, ishq kuychisidir.

Ma'lumki, Abdulla Oripov she'rlari bilan har bir inson qalbiga kirib borgan. Uning she'rlaridan yod olmagan, bilmagan inson bo'lmasa kerak. Uning she'rlarini o'qigan inson qayta-qayta xirgoyi qilgisi kelaveradi. Shoирning muhabbat haqida to'plam kitoblari bir necha bor bosmadan chiqqan. Uning birinchi she'riy to'plami "Mitti yulduz" hisoblanadi. Keyin esa "Ko'zlarim yo'lingda", "Onajon", "Ruhim", "Yuzma-yuz", "Munojot", "Shoir yuragi" va boshqa to'plamlari bor. Shoir she'rlarida inson ko'nglining tub-tubiga qadar yetib boradigan masalalarini tilga oladi. Masalan, shoирning "Yillar armoni" she'riy to'plamini olsak. Unda shoir inson qalbining ashaddiy kushandalari bo'lgan bo'lgan hasadgo'ylar, g'iybatchilar, fitna-fasodchilar, ezgulikva razolar haqidagi qarashlari yanada keskin ruh bilan ifodalanadi. Shoирning she'rlari tanqidchilar tomonidan ham tahlil qilingan va muhokamalarga sabab bo'lgan. Shoирning yana bir she'ri bo'lgan "Tilla baliqcha" she'rinii har bir inson turlicha talqin qiladi. Insonlar bir sayyorada istiqomat qilar ekanlar bir-birlaridan nimadir o'rganishlari shart. Bir-birlariga hasad bilan emas, havas bilan qarashlari lozim deb shoирning o'zi aytib o'tadi.<sup>1</sup>

Abdulla Oripovning "Dunyoni qizg'anma mendan azizim" she'rinii olsak. Uni har bir inson turlicha tahlil qiladi. Uning har bir misralarida inson o'zi uchun juda ko'p narsani oladi. She'rnинг birinchi misrasi quyidagicha:

Dunyoni qizg'anma mendan, azizim,  
Men sening ko'changdan o'tmasam zinhor.

<sup>1</sup> Abdulla Oripov Tanlangan asarlar Toshkent-2016 .316b.

Mening bu olamda o'z aytar so'zim

Va o'zim sig'inar mozorlarim bor.

Shoir bu baytda insonga murojaat qilyapti.Bu dunyoda hech narsani bir-birimizdan qizg'anmaylik, agar mendan dunyoni qizg'onsang , men sening ko'changdan o'tmayman.Bu dunyoda o'zimning aytadigan so'zim va o'zim sig'inadigan mozorlarim bor. Bu she'rni ba'zilar yorga nisabatan ba'zilar insonlarga niabatan tahlil qiladi. Mening fikrimcha bu she'r insonlarga nisabatan aytilgan.Shoir o'z ichki hissiyotlarinini oddiy so'zlar bilan ifodalamagan. Agar oddiy ifodalaganda edi she'r inson qalbining tub-tubigacha yetib bormagan bo'lar edi. Ikkinchı baytga kelsak :

Dunyoni qizg'anma mendan,azizim,

Sen ichgan buloqdan ichmasman aslo.

Sen yurgan tog'larda qolmagay izim,

Sen kechgan daryodan kechmasman aslo.

Shoir har bir she'rida nimalarnidir inkor qiladi, nimalarnidir yoqlaydi.Inkor qilinadigan va yoqlanadigan tomonlarning ziddiyatlari shoir she'larida juda kuchli.Uning she'rlarida hayojon juda kuchli.Shoir bu baytda yana dunyoni unda qizg'anmasligini aytadi va u ichgan buloqdan suv ichmasligini aytib o'tadi. Shoir oddiy sodda til bilan she'rni yozgan bo'lsa ham undagi ma'no hayajon insonni to'lqinlantirib yuboradi.Uning uchinchi va to'rtinchi baytlarida ham u yurgan tog'larda shoirning izlari qolmasligini aytadi.Bu yerda bir qarashda tog' oddiy tog'day tuyiladi, bir qarashda esa insonning hayotidagi sinovlar, mashaqqatli hayot yo'llariga o'xshaydi. Shoir oxirgi baytda u kechgan daryodan hech qachon kechmasligini aytadi.Kitobxonga shu o'rinda savol tug'iladi. Nega shoir u kechgan daryodan kechmaydi ? Balki, u kechgan daryodagi yomonliklarni qaytarish niyati yo'qligini, u daryo insonni o'ziga tortib ketishini aytgandir. Uchinchi bandga kelsak:

Dunyoni qizg'anma mendan,azizim,

Qalbingni yoqmasin shubha va so'roq.

Men o'zga manzilga tikkanman ko'zim,

U sening kulbangdan juda ham yiroq.

Shoir har bir bandning birinchi baytida bir xil jumlanı qo'llaydi.Bu she'rga ohangdorlik beradi va insonni o'ziga jalb qiladi.Kitobxon bu she'rni qayta-qayta o'qir ekan, u o'zi uchun yangi narsalarni kashf qilaveradi.U sen bu dunyoni qizg'anma , qalbingdan shubha bo'lmasin, men senig kulbangga ko'z tikkanim yo'q.Mening ko'z tikkan manzilim bor u sening kulbangdan ancha yiroqdir deydi.

Shoir she'larining deyarli barchasida o'zgacha ma'no va joziba bor.Abdulla Oripov kichik bir she'riga ham katta ma'no sig'diradigan shoirdir. Shoir dunyoda yaxshilik va yomonlik borligini ham esdan chiqarmaydi.Uning "Yuzma-yuz" she'ri misol bo'ladi."Bu she'rida ikki haqiqat

yonma-yon,biri har xil vaziyatda har xil nom bilan ataladigan yomonlikning namoyon bo'lishi, hayotning kelajagini ta'minlovchi yaxshilikdir."<sup>2</sup>

Abdulla Oripov she'riyati , xalq va adabiyotshunoslik bir ovozdan e'tirof etganidek,o'zbek poeziyasida muhim o'ringa, katta salmoqqa ega bo'lgan she'riyatdir.Uning she'riyatidagi xalq qalbiga yaqinlik, xalq dilidagi quvonch va shodlik , armon va dardlarni topib so'ylash, musiqiy misralarda ifodalash shoir she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridandir.Shoir o'z qalamidan rangbarang gullar yaratdi. Bu gulzordan biz yoshlar bahramand bo'lyapmiz va bizning qalbimizda ham o'sha chechaklar yashnayapti.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Abdulla Oripov.Yillar armoni. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.Toshkent,1987.
2. Abdulla Oripov. Yuzma-yuz. — G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1978.

<sup>2</sup> Abdulla Oripov.Yillar armoni.Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1987-11b.